AKT VA INTERNET TERMINLARINING XALQARO TERMINELEMENTLAR BILAN YASALISHI

Abdialimova Sarvinoz Sharabjon qizi
GulDU O'zbek tilshunosligi kafedrasi tayanch doktoranti
E-mail: abdialimovasarvinoz@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu tezisda hozirgi globallashuv va raqamli texnologiyalarning rivojlanishida terminlarining xalqaro terminelementlar bilan qanday yasalishi haqida fikr yuritiladi. Bu tizim tilning lug'at tarkibi lisoniy jihatdan o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanligini yaqqol ko'rsatuvchi murakkab qatlamidir. Chunki ular yordamida axborot kommnikatsiyalari, fan va texnika olamiga mansub tushunchalarga nom beriladi. Tezisda sohaga oid terminlarning yasalish xususiyatlari chuqur tahlil etiladi.

Tayanch so'zlar: Terminelement, kalkalash, internet, birikma termin, murakkab birikma termin, dasturlash va b.

Bugungi kunda internet va raqamli texnologiyalar jadallik bilan rivojlanayotgan bir davrda AKT hamda shu sohaga oid terminlarning shakllanishi, taraqqiy etishi qolaversa, ularning tilimizdagi o'rnini o'rganish muhim ahamiyat kasb etmoqda. AKTning xalqaro miqyosda taraqqiy etishi natijasida yangi terminlar tilimizga kirib kelmoqda. Ushbu terminlarning bazi qismi xalqaro terminelementlar bilan birgalikda shaklllanib, tilimizda terminologik tizimning boyishiga xizmat qilmoqda.

Termin yasalishida xalqaro terminelementlar muhim vositalar bo'lib, ular turli tillarda umumiy yoki bir-biriga yaqin ma'nolarni ifodalash orqali ilmiy-texnik axborotning yanada tushunarli bo'lishiga yordam beradi. Xususan, anti-, avto-, bio-, geo-, makro-, mikro-, tele-, radio- kabi elementlar ishtirokida hosil qilingan terminlar turli fan va texnika sohalarida, jumladan, AKT hamda internet terminologiyasida ham uchraydi. Bu kabi belgilarning o'zbek tilida termin yasalish jarayonida qo'llanishi milliy tilning yangi tushunchalarni lug'atimizga kirib kelishi imkoniyatlari o'rtasidagi munosabatni o'rganishga zarurat yaratadi. Quyida shu kabi bazi termin va tushunchalarning rivijlanish tendensiyalarini ko'rib chiqamiz.

Mikrokalkulator – O'ta ixcham mikrokompyuter. Nisbatan oddiy muhandislik, iqtisodiy va boshqa hisoblashlar uchun mo'ljallangan. Dasturlashtiriladigan kalkulatorlar keng tarqalgan. Murakkab bo'lmagan dasturni kiritish orqali mutaxassis bunday mikrokalkulatorda tenglamalarni yechishi, formulalar bo'yicha hisoblashlar qilishi mumkin.

Mikrosayt – minisayt deb ham nomlanadigan mikrosayt – bu veb-saytning bosh sahifadan tashqari alohida URLga ega bo'lgan va axborotni taqdim etish va/yoki bosh sahifaga bog'liq bo'lgan nimanidir reklama qilish uchun foydalaniladigan alohida sahifasi. Masalan, muzey veb-sayti u yerda o'tkazilayotgan maxsus ko'rgazma haqida axborotga ega mikrosaytga murojaatga ega bo'lishi mumkin, yoki kompyuter ishlab chiqaruvchisi foydalanuvchiga yangi mahsulot dizayni to'g'risida axborot berish uchun mikrosayt yaratishi mumkin. Mikrosaytlar odatda reklama kompaniyasi tugagach yoki axborot ahamiyatsiz bo'lib qolganda vebserverlaridan olinadigan vaqtinchalik vebsaytlardir[1].

[1] Aripov A.N., Mirzaxidov X.M., Shermatov Sh.X., Saidxodjayev S.R., Hasanov P.F., Amirov D.M., Bakirov O.A. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari izohli lug'ati. – Toshkent, 2004. – B. 190.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Ko‘p hollarda monosemantik xarakterdagi avto- (avtomatlashgan), anti- (antivirus), makro- (makrouya), mikro- (mikrdastur), poli- (poligrafiya), ultra- (ultraqisqa), mono- (monokanal) singari propozitiv, ya’ni prefiksal, -log- (texnologiya), -navt (aeronavt), -skop (mikroskop) kabi postpozitiv, ya’ni postfiksal yoki gramma (diagramma, piktogramma) singari ham prepozitiv, ham postpozitiv terminelementlar o‘zbek tilida tarjimasiz, aynan qo‘llanadi: avtomatlashtirilgan, ultratovush, makrotizim va h.k.

Piktogramma – biror obyektni (fayl, dastur va h.k. ni) aynanlash uchun videoekranda joylashgan kichik rastrli tasvir. Uni tanlash va faollashtirish natijasida biror amalni chaqiradi. U foydalanuvchi grafik interfeysi elementlaridan biridir.

Giper- (gipermatn, gipermurojaat, giperhavola), inter- (internet tarmog‘i, internrt brauzerlari), infra- (axborot-kommunikatsiya infratuzilmasi), super- (superkompyuter, supertarmoq), ultra-, (ultrabinafsha, ultraqisqa), ekstra- (ekstratarmoq) kabi prepozitiv terminelementlar sifat belgisining meyordan oshiqligi yoxud o‘zakdan anglashilgan ism ma’nosining yuqori darajasini ifodalaydi: giperhavola, interfeys, infratuzilma, ultrabinafsha, kompyuterning arxiteturasi va h.k.

Xalqaro terminelementlar aniq ma’noni ifodalashga xoslangani bilan xarakterlanadi. Chunonchi, -log elementli terminlar biron fan sohasi mutaxassisini anglatishga xizmat qiladi: texnolog, minerolog, fiziolog, biotexnolog, meteorolog, va h.k.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) va internet sohasi jadal rivojlanishi natijasida o‘zbek tilida ko‘plab yangi terminlar paydo bo‘lmoqda. Bu terminlarning muayyan qismi xalqaro, asosan yunon-lotin hamda ingliz tiliga mansub terminelementlar asosida shakllanadi. O‘zbek tilida AKT terminologiyasi alohida terminologik tizim sifatida rivojlanib, uning tarkibida o‘zlashma, kalkalash va o‘zbek tilining ichki imkoniyatlari asosida hosil qilingan birliklar mavjud. Bu terminlarning katta qismi ingliz tili orqali xalqaro ilmiy-texnik leksikadan kirib kelmoqda. O‘zbekistonda AKT terminlarini tizimlashtirish uchun 3200 dan ortiq atamani qamrab olgan maxsus lug‘at ham yaratilgan; TATU ma’lumotiga ko‘ra, keyingi kengaytirilgan lug‘atda qariyb 5000 ta atama va tushuncha mavjud.

Xalqaro terminelement – turli tillarda, ayniqsa ilmiy-texnik terminologiyada o‘xshash shakl va ma’noda qo‘llanadigan, termin yasashda xizmat qiluvchi morfemalardir. Ular ko‘pincha yunon, lotin va ingliz tillari orqali boshqa tillarga tarqalgan. Bunday elementlar yangi texnologik tushunchalarni ixcham va xalqaro miqyosda tushunarli tarzda nomlash imkonini beradi. Masalan:

tele – uzoq, masofadan: telekommunikatsiya, telekonferensiya;
inter – o‘zaro, orasida: internet, interaktiv;
multi – ko‘p: multimedia;
mikro – kichik: mikroprotsessor, mikrokompyuter;
avto – o‘z-o‘zidan, avtomatik: avtorizatsiya, avtomatlashtirish;
kiber – kompyuter va raqamli muhit bilan bog‘liq: kiberxavfsizlik, kiberhujum;
geo – yer, geografik makon: geolokatsiya;
nano – juda kichik o‘lcham: nanotexnologiya;
trans – orqali, bir tomondan ikkinchi tomonga: translyatsiya, tranzaksiya;
- logiya – fan, ta’limot: texnologiya;
-graf / -grafiya – yozish, tasvirlash bilan bog‘liq: geografiya, infografika.

Bunday elementlar yangi terminlarning ma’nosini ixcham va aniq ifodalashga, xalqaro miqyosda tushunarli tarzda nomlash imkonini beradi.

AKT terminlarining yasalish usullari. AKT va internet terminlari bir necha yo‘l bilan shakllanadi.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

a) xalqaro terminni o'zlashtirish orqali. Ingliz tilidan kirgan termin o'zbek tilida deyarli asl shaklida qo'llanadi: internet, server, modem, router, blog, podcast, domen, portal. Bu usul orqali texnologiya juda tez rivojlanadigan sharoitda yangi tushunchani tez nomlash imkonini beradi.

b) xalqaro terminelement + o'zlashgan yoki o'zbekcha asos orqali. Masalan:

mikro + protsessor < mikroprotsessor;
tele + kommunikatsiya < telekommunikatsiya;
multi + media < multimedia;
kiber + xavfsizlik < kiberxavfsizlik;
video + konferensiya < videokonferensiya.

Bu usulda xalqaro element o'zbek tilidagi yoki boshqa tildan o'zlashgan asos bilan birikadi va yangi termin hosil qiladi.

c) so'z birikmasi orqali termin yasash**.** O'zbek tilida terminlar faqat bitta so'zdan emas, balki birikmalardan ham hosil bo'ladi: axborot tizimi, axborot xavfsizligi, elektron hukumat, virtual reallik, sun'iy intellekt, ma'lumotlar bazasi, mobil ilova va b. Zamonaviy AKT lug'atlarida telekommunikatsiya, tarmoq texnologiyalari, dasturiy va uskunaviy ta'minot, elektron hukumat, axborot xavfsizligi kabi ko'plab yo'nalishlar qamrab olinadi.

Tele [yun. tele – uzoq, uzoqda, uzoqqa] – o'zlashma qo'shma so'zlarning birinchi tarkibiy qismi bo'lib, uzoq masofadan turib harakat (ta'sir) qiluvchi yoki amalga oshiriluvchi degan ma'nolarni anglatadi yoki "televizion" so'zi ma'nosiga to'g'ri keladi[2].

2004-yilda A.Aripov, X.Mirzaxidov, Sh.Shermatov, S.Saidxodjayev, P.Hasanov, D.Amirov, O.Bakirov mualliflar jamoasi tomonidan nashr etilgan "Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari izohli lug'ati" (278-283-bet)da 40 dan ortiq tele- xalqaro terminelementi bilan yasalgan terminlarni uchratish mumkin. Masalan, telefaks, teledastur, telekommunikatsiya, teleko'rsatuv, telekonferensiya, telematn, teletibbiyot, telemarketing, telexizmat, teleminora, teleantenna, telereklama va b[3].

Tele- xalqaro terminelementi bilan quyidagi terminlar hosil bo'lgan: Telefonogramma – nutqiy pochta saqlaydigan va uzatadigan, qabul qiluvchi esa, eshitadigan xabar.

Teleish – 1. Axborot-kommunikatsiya infratuzilmasidan foydalangan holda ish natijalaridan foydalanish ishlatish joyidan uzoq yerda bajariladigan ish. 2. Bir tashkilotning xodimlarini o'z uylarida yoki maxsus mahalliy telemarkazlarda, telekommunikatsiya tizimlaridan foydalanib ularning o'zaro ishlashini ta'minlaydigan ishlab chiqarish faoliyati. Teleish qator muhim imkoniyatlar beradi, ularga birinchi galda quyidagilar kiradi: ish vaqtini va bo'sh vaqtni erkin taqsimlash; ish joyiga qatnash uchun ketadigan vaqt va xarajatlarni tejash.

Telekommunikatsiya – 1. Simli, radio, optik yoki boshqa elektromagnit tizimlardan foydalanib signal, belgi, matn, tasvir va tovushlarni yoki boshqa ko'rinishdagi axborotni uzatish, qabul qilish va unga ishlov berish jarayoni. 2. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida ma'lumotlarni masofadan uzatish jarayoni. 3. Predmeti axborot uzatish uslublari va vositalari bo'lgan faoliyat sohasi.

Tele- xalqaro terminelementi asosida telekommunikatsiya makroiqtisodiyoti, telekommunikatsiya operatori, telekommunikatsiya operatorining xizmat doirasi, telekommunikatsiya tariflari,

---

[2] Мадвалиев А., Маҳкамов Н., Мираҳмедова З., Саиднўъмонов А. Халқаро терминэлементларнинг изоҳли-иллюстратив луғати. – Тошкент: "Donishmand ziyosi", 2020. – Б.218.

[3] Aripov A.N., Mirzaxidov X.M., Shermatov Sh.X., Saidxodjayev S.R., Hasanov P.F., Amirov D.M., Bakirov O.A. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari izohli lug'ati. – Toshkent, 2004. – B. 241.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

telekommunikatsiya tarmoqlarining (TT) axborot xavfsizligi, telekommunikatsiya tarmog'i, telekommunikatsiya tarmog'ining itoatkorligi, telekommunikatsiya tashkiloti, telekommunikatsiyalar mikroiqtisodiyoti, telekommunikatsiyalar tarmog'ining texnologik xavfsizligi, teleko'rsatuv tarmog'i, teleko'rsatuv kamerasi kabi ikki, uch va to'rt komponentli AKT terminlari hosil qilingan.

Video...(lototincha video – qarayman, ko'ryapman) o'zlashma qo'shma so'zlarning tarkibiy qismi bo'lib, shu so'zlarning tasvir haqida axborot uzatuvchi elektrsignallarga, shuningdek, tasvir uzatish tizimida qo'llanuvchi qurilmalarga aloqadorligini anglatadi. Masalan, videodisk, videokamera, videopleyer va b[4]. Video – yozib olingan (tasvirga tushirilgan) harakatlanuvchi tasvirlar.

Videokarta – tasvirni ekranda aks ettirish imkonini beruvchi ichki qurilma.

Videokonferensiya – turli manzillarda joylashgan ishtirokchilar bir-birini ko'ra va eshita oladigan elektron uchrashuv. Videokonferensiya audio va video ma'lumotlarni uzatish uchun kompyuter tarmoqlari yordamida o'tkaziladigan, alohida manzillarda joylashgan ikki va undan ortiq kishi ishtirok etadigan uchrashuv yoki yig'ilish[5].

AKT terminlarining xalqaro o'zlashmalar asosida yasalishi. AKT sohasida ingliz tilidan o'zlashgan birliklar juda ko'p. Masalan: kompyuter, server, modem, monitor, internet, brauzer, fayl, dastur, printer, skaner, platform, portal, hosting, domen. Ayrimlari o'zbek tiliga deyarli tayyor holda kirib kelgan bo'lsa, boshqalari o'zbek tilining grammatik va so'z yasash imkoniyatlariga moslashtirilgan. Masalan:

blog < bloger < blogerlik;
skaner < skanerlash < skanerlangan;
format < formatlash < formatlangan;
monitor < monitoring;
raqam < raqamlashtirish < raqamli.

Keltirilgan misollarimizda o'zlashgan xalqaro asosga o'zbek tilining -chi, -lik, -la, -lash, -lashtir- kabi affikslari qo'shilib, yangi terminlar hosil qilingan.

Internet terminlarining yasalishi. Internet terminologiyasida ingliz tilining ta'siri ayniqsa kuchli. Buning sababi internet texnologiyalarining asosiy tushunchalari dastlab ingliz tilida shakllanganidir. Masalan:

Inglizcha termin	O'zbek tilida qo'llanishi	Yasalish xususiyati
Internet	internet	to'g'ridan-to'g'ri o'zlashma
Web	veb	fonetik moslashuv
Cybersecurity	kiberxavfsizlik	xalqaro element + o'zbekcha asos
Multimedia	multimedia	xalqaro elementlar qo'shilishi

[4] Мадвалиев А., Маҳкамов Н., Мираҳмедова З., Саиднўъмонов А. Халқаро терминэлементларнинг изоҳли-иллюстратив луғати. – Тошкент: "Donishmand ziyosi", 2020. – Б.46.

[5]Jamoa. Informatika va axborot texnologiyalari. 5-sinf uchun darslik. – Toshkent, 2023. – B. 172.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Geolocation	geolokatsiya	xalqaro terminelement asosida
Hyperlink	gipermurojaat	xalqaro element + o‘zbekcha asos
Smartphone	smartfon	o‘zlashma
Online	onlayn	fonetik moslashuv
Offline	oflayn	fonetik moslashuv

Internet va axborot texnologiyalariga oid yangi birliklar o‘zbek tilining leksik tizimiga kirib, vaqt o‘tishi bilan neologizm yoki faol termin sifatida shakllanadi.

Internet terminologiyasida xalqaro birliklar ayniqsa faol. Masalan: web + sahifa = veb-sayt; blog + er = bloger; chat + lash = chatlashmoq; online = onlayn; offline = oflayn; login = login; password = parol; download = yuklab olish; upload = yuklash.

Bu yerda ikki xil jarayonni ko‘rish mumkin: *to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘zlashtirish* va *kalkalash,* ya’ni chet tilidagi tushunchani o‘zbek tilidagi vositalar bilan ifodalash. Masalan, *download* uchun *yuklab olish*, *user* uchun *foydalanuvchi*, *search engine* uchun *qidiruv tizimi* kabi shakllar qo‘llanadi.

Tadqiqotlarda o‘zbek internet leksikasida o‘zlashmalar sezilarli ulushga ega ekani qayd etiladi; bu internet terminologiyasining xalqaro xarakterini ko‘rsatadi.

O‘zbek tilining ichki imkoniyatlari asosida termin yasash. AKT terminlari faqat xorijiy so‘zlardan iborat emas. Umumxalq tilidagi so‘zlar yangi, terminologik ma’noda qo‘llanib, maxsus terminga aylanishi ham mumkin. Masalan: sichqoncha = mouse; oyna = *window*; qumondon = *sandbox*; langar = *anchor*. Bunday terminlarda mavjud o‘zbekcha so‘zga yangi, sohaga xos ma’no yuklanadi. Tadqiqotlarda *langar* va *qumondon* kabi birliklar umumadabiy so‘zning terminologik ma’noga ixtisoslashishiga misol sifatida keltiriamiz.

Termin yasashning asosiy usullari. AKT va internet terminlarini quyidagi usullar orqali guruhlash mumkin:

Usul	Misollar
To‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘zlashish	*internet, server, modem, blog*
Affiksatsiya	*bloger, blogerlik, raqamlashtirish*
Kompozitsiya	*veb-sahifa, videokonferensiya*
Kalkalash	*foydalanuvchi, qidiruv tizimi, yuklab olish*
Semantik terminlashish	*oyna, sichqoncha, langar*
Qisqartma	*AKT, IT, URL, HTML, HTTP*
Xalqaro terminelementlar yordamida	*telekommunikatsiya, multimedia, interaktiv*

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

BMT Taraqqiyot dasturi va TATU bilan bog'liq AKT lug'atlarida telekommunikatsiya, internet, tarmoqlar, dasturiy ta'minot, elektron hukumat, axborot xavfsizligi kabi ko'plab yo'nalishlarning terminlari jamlangan. Masalan, 2004-yilda nashr etilgan "Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari izohli lug'ati" va b[6].

Xalqaro termin elementlarning ahamiyati. Xalqaro terminelementlar AKT terminologiyasida bir necha muhim vazifani bajaraib keladi:

1. Terminlarni ixchamlashtiradi. Masalan, *telekommunikatsiya* so'zi uzoq masofadagi aloqa tushunchasini bitta termin orqali ifodalaydi.

2. Xalqaro tushunarlilikni ta'minlaydi. *Multimedia, internet, interaktiv, mikroprotsessor* kabi terminlar ko'plab tillarda o'xshash shaklda ishlatiladi.

3. Yangi termin yaratishni osonlashtiradi. Masalan, *kiber-* elementi yordamida *kiberxavfsizlik, kiberhujum, kibermakon* kabi terminlar hosil qilinadi.

4. Ilmiy-texnik terminologiyani tizimlashtiradi.

Demak bir xil terminelementning turli terminlarda takrorlanishi ular o'rtasidagi ma'no munosabatini ko'rsatadi.Xalqaro terminelementlar AKT va internet terminologiyasining shakllanishida muhim vosita hisoblanadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak , bazi terminelementlar orqali *telekommunikatsiya, multimedia, interaktiv, mikroprotsessor* kabi terminlar yuzaga keladi. Shu bilan birga, ingliz tilidan o'zlashgan birliklar o'zbek tilining *-chi, -lik, -la, -lash, -lashtir-* kabi vositalari yordamida yangi terminlar hosil qiladi. Bundan tashqari *sichqoncha, oyna, foydalanuvchi, qidiruv tizimi* kabi milliy yoki kalkalashgan birliklar ham AKT terminologiyasini boyitmoqda. Demak, zamonaviy o'zbek AKT va internet terminologiyasi *xalqaro o'zlashmalar, terminelementlar, kalkalash va milliy so'z yasash usullarining o'zaro ta'siri* asosida rivojlanmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Aripov A.N., Mirzaxidov X.M., Shermatov Sh.X., Saidxodjayev S.R., Hasanov P.F., Amirov D.M., Bakirov O.A. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari izohli lug'ati. – Toshkent, 2004. – 500 b.
2. Dadaboyev H. O'zbek terminologiyasi: o'quv qo'llanma. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2020. – B.86.
3. Мадвалиев А., Маҳкамов Н., Мираҳмедова З., Саиднўъмонов А. Халқаро терминэлементларнинг изоҳли-иллюстратив луғати. – Тошкент: "Donishmand ziyosi", 2020. – Б.218.
4. Informatika va axborot texnologiyalari. 5-sinf uchun darslik. – Toshkent, 2023. – 176 b.
5. O'zbek tilining izohli lug'ati VI jildli. III jild. – Toshkent, 2023. – 844 b.

[6] Aripov A.N., Mirzaxidov X.M., Shermatov Sh.X., Saidxodjayev S.R., Hasanov P.F., Amirov D.M., Bakirov O.A. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari izohli lug'ati. – Toshkent, 2004. – B. 241.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.